

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAITOV BAHODIR TURSUNOVICH

**HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNI MA'NAVIY-
MA'RIFIY VA HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH
METODIKASI**

**(“Harbiy san’at tarixi, milliy harbiy meros va O‘zbekistonning eng yangi
tarixi” fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Xaitov Bahodir Tursunovich

Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodikasi ("Harbiy san'at tarixi, milliy harbiy meros va O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani misolida) 3

Хайтов Баходир Турсунович

Методика воспитания курсантов военных учебных заведений в духовно-просветительском и военно-патриотическом духе (на примере предмета "История военного искусства, национальное военное наследие и новейшая история Узбекистана") 27

Khaitov Bakhodir Tursunovich

Methods of educating cadets of military educational institutions in a spiritual-educational and military-patriotic spirit (on the example of the subject "History of military art, national military heritage and the modern history of Uzbekistan") 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications 57

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAITOV BAHODIR TURSUNOVICH

**HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNI MA'NAVIY-
MA'RIFIY VA HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH
METODIKASI**

**(“Harbiy san’at tarixi, milliy harbiy meros va O‘zbekistonning eng yangi
tarixi” fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

CHIRCHIQ – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3467 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferat uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xasonboyev Bekzodjon Valijonovich
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ismoilov Temurbek Islomovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Xodjaev Begzod Xudoyberdievich
pedagogika fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va
Aloqa harbiy instituti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 27 12 kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.). Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: cspu_kengash@umail.uz.


Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (414 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 17 12 kuni tarqatildi.

(2025-yil 17 12 dagi 50- raqamli reyestr bayonnomasi).




U.N. Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor


T.T. Kaziyeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, p.f.d., dotsent


R.A. Eshchanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari mamlakatlarning milliy ta'lim platformalarida yoshlarning intellekti va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning tarbiyaviy mexanizmlarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Taraqqiyotning bugungi bosqichiga kelib chegara, hudud va mintaqa kabi tushunchalarni tan olmaydigan va butun insoniyatga katta xavf soluvchi tahdidlar tobora ko'payib bormoqda. Hozirda yer kurrasida bu kabi tahdidlardan kafolatli himoyalangan hududni topish mumkin bo'lmay qoldi. Shunga qaramay har bir mamlakat geosiyosiy maydondagi o'rni, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa imkoniyatlaridan kelib chiqib tashqi tahdidlardan himoyalaniish choralarini ko'rmoqda. Bugungi axborot texnologiyalari tobora rivojlanib borayotgan globallashuv sharoitida mamlakat fuqarolarini, xususan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning, xususan, harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish orqali harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sayyoramizda kuzatilayotgan geosiyosiy jarayonlarning taranglashuvi oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak ofitserlarda ham jismonan, ham ma'nan barkamol bo'lishni, jarayonlarga nisbatan Vatan manfaatidan kelib chiqadigan o'z mustaqil pozitsiyasiga ega bo'lishni taqozo qilmoqda. Jahon hamjamiyatida kechayotgan siyosiy, mafkuraviy jarayonlar oliy harbiy ta'lim muassasalari oldiga ham aniq, qat'iy vazifalarni qo'yimoqda. Ushbu vazifalar real vaziyatlarda va jangovor holatlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan sinovlarni yengishga qodir, mavjud xavflarni ang'lay olish ko'nikmasiga ega bo'lgan, vaziyatni to'g'ri tahlil qila oladigan ofitser kadrlar tayyorlash bilan ado etiladi. Bu esa oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni ilmiy asosda tizimli tashkil etishni taqozo qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida harbiy ta'lim muassasalari tinglovchilarining intellektual salohiyatini ko'tarish, jismoniy imkoniyatlarini oshirish va ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish bilan bog'liq ta'limiy yangilanishlar ham mavjud. Bu borada bugungi kunda mavjud meyoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, o'quv va tarbiyaviy jarayonlar zamonaviylashtirilmoqda, jahon tajribasida sinalgan va ilmiy jamoatchilik tomonidan ma'qullangan ilmiy-texnologik loyihalar oliy harbiy ta'lim tizimiga tatbiq etilmoqda. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da Mudofaa sohasida qo'shinlarning jangovor shayligi va tayyorgarligini oshirish, harbiy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan birga u yerda tahsil olayotgan tinglovchilarning vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usini mustahkamlash,

ular da bag‘rikenglik fazilatlarini qaror toptirish, qonunlarga, milliy va umumiinsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirish, gumanistik g‘oyalar targ‘iboti bilan bog‘liq qarashlarini takomillashtirishga e‘tibor qaratilgan. Bo‘lajak ofitserlarning kasbiy malaka darajasini yuksaltirish, kompetentli harbiy kadrlar bo‘lishi uchun munosib shart-sharoit yaratish, mazkur jarayonni pedagogik aspektda tizimli tadqiq qilish soha oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2022-yil 23-avgustdagi PQ–359-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrda gi 775-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta‘lim muassasalarida o‘qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish, kursantlarni o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2019-yil 31-dekabrda gi 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2023-yil 30-oktabrdagi 945-son “Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish bo‘yicha vaqtinchalik Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tarbiya muammosini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish o‘zining uzoq tarixiy ildizlariga ega. Sharq mutafakkirlari: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab alloma va mutafakkirlar tarbiyaning jamiyat rivojida va inson kamolotidagi ahamiyati borasida o‘z fikrlarini bayon qilishgan. Shuningdek, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Is‘hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma‘rifatparvar ziyolilar ham yoshlar ta‘lim va tarbiyasining amaliy ahamiyati borasida salmoqli fikr-mulohazalar bildirishgan. Mazkur ajdodlarimizning ilmiy merosi tadqiqotimizning metodologik asosini tashkil qiladi.

Mamlakatimizda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi masalasi tadqiqotchilar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan.¹ Ushbu tadqiqotlarda vatanparvarlik, xususan, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi milliy g'oya, qadriyatlar va psixologiya aspektida kichik tadqiqotlar darajasida o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda tarbiya tushunchasiga umumiy asosda yondashilgan, tarbiyaning shakllari farqlangan holda ularning har biri monografik planda chuqur ilmiy tadqiq qilinmagan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi birinchi marta yirik ilmiy tadqiqot ko'rinishida R.Y.Kurbanov tomonidan tadqiq qilingan.² Unda tadqiqotchi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini milliy g'oya bilan bog'liq holda tadqiq qiladi. Xususan, yoshlarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishning nazariy metodologik masalalari, Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan harbiy islohotlar va harbiy-vatanparvarlik tuyg'usi, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirish muammolari atroflicha tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda o'zbek xalqining Shiroq, Spitamen, To'maris kabi siymolarning qahramonligini; Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur vatanparvarligini o'ziga xos ma'naviy-axloqiy ideal sifatida ulug'lashga, "Temur tuzuklari" singari harbiy pandnomalarning vatanparvarlik mazmuni I.Inoyatov, A.Redjaboyev, Z.Alimardonov, K.Usmanov, N.Eshnayev, U.Shermatova, F.Boqiyev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, xususan, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi tarbiyaning alohida shakli sifatida keyingi yarim asrda ilmiy asoslarda tadqiq qilina boshlangan. Xususan, sobiq ittifoq davrida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi baynalminallik tushunchasi bilan aloqadorlikda birmuncha o'rganilgan.³

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.Tretyakov, M. Bovkun, A. Kabrchenko, P. Lebedov, V. Vasyutin, E.Tyugashev, G.Vidrina, Y.Yevdokimova G.Alekseyev, A.Kurvina, A.Leontyevlarning ilmiy izlanishlarida

¹ Ватан ҳимояси – муқаддас бурч. /Тузувчилар: Иноятов И.Ю., Абилов М.Х. Т.: Ўзбекистон, 2001. Мустақиллик ҳимоясида. /Тузувчилар: Иноятов И.Ю., Жуманазаров Х., Курбанов Р.Ю. Т.: ЎзР МВ, 2003. Калошин В.А. Нашей истории строки. Т.: Ватанпарвар, 2001. Абдуллаев Р.И. Психология операциялари (ўқув-услугий кўлланма). Т.: Ғ.Ғулом, 2004. Насриддинов Ч.Р. Ҳарбий психология. Т.: Фан, 2004. Абдурасулов О.А. Ҳарбий хизматчилар ўртасида ватанпарварлик тарбиясини амалга ошириш йўллари ва унинг назарий асослари. // Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг тарихи, бугуни ва келажаги: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Т.: ЎзР МВ. 2005. –Б.96-98. Маматов О. Ватанпарварлик – миллий истиқлол мафкурасининг муҳим таркибий қисми. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, -Т.: 2001. №6 –Б.33-38. Камбаров М.А. Актуальные проблемы духовно-нравственного и патриотического воспитания на современном этапе. // Проблемы духовно-нравственного и патриотического воспитания военнослужащих и пути их решения: Илмий-амалий анжуман материаллари. –Т.: МО РУ. 2001. –С.4-28.

² Курбанов Р.Ю. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий ғоянинг ўрни. / 09.00.11 – Ижтимоий фалсафа ихтисослиги бўйича номзодлик диссертацияси. –Т.: 2008.

³Третьяков В.В. Военно-патриотическое воспитание учащихся. –Т.: Ўқитувчи. 1971. –С.16. Актуальные проблемы патриотического и интернационального воспитания молодежи. –М.: Наука, 1987. –С. 12-15. Бовкун М.С. Образ жизни советской молодежи: тенденции проблемы перспективы. –М.: Мысл. 1988. –С.67-74. Кабрченко А.П., Леbedov П. Интернациональное патриотическое воспитание учащихся. –М.: Наука. 1987. –С.123-127. Васютин В.С. Военно-патриотическое воспитание: теория и практика. –М.: Воениздат, 1984. –С.43-55.

vatanparvarlik tarbiyasi, uning usul va shakllari, texnologiyalari, tarix fanlari vositasida talabalarning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish muammolari yoritilgan.

Jahonda jamiyat rivojlanishining dialektik qonuniyatlari, xususan, mamlakatlar daxlsizligini ta'minlashda harbiy sohaning zarurati, harbiy kadrlar tayyorlash tizimni takomillashtirish, askar va ofitserlarni jismonan va ma'nan barkamol etib tarbiyalash muammosining ilmiy-falsafiy jihatlarini, fundamental va konseptual masalalari L.Golbax, T.Gobbs, S.Frank, F.Gegel, A.Gersen, I.Kant, A.Maslou, H.Gibb, B.Manz, V.Maurizio, A.Mustafa, M.Roger, K.Steven kabi olimlar ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tushunchasi o'zining keng qamrovli falsafiy ma'nosi bilan ko'plab ilmiy-tadqiqotlarga asos bo'lishi mumkin. Bu tushunchani bir yoki ikki tadqiqot ishi bilan atroflicha o'rganish, tahlil qilish va tavsiflash qiyin. 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi"ning qabul qilinishi bu yo'nalishdagi siyosatning asosiy tamoyillarni belgilab berdi. Unda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsad va vazifalari, bosqichlari, asosiy prinsiplari va amalga oshirish mexanizmlari ko'rsatib berilgan. Ushbu hujjatning qabul qilinishi bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning mazmunida ham o'z ifodasini topishi lozim. Shu nuqtai nazardan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasini Konsepsiya kontekstida ilmiy tadqiq qilish, bu tushunchaning mohiyati va mazmunini tahlil qilish va tavsiflash, xususan, harbiy ta'lim muassasalarida ushbu konsepsiyani amalga oshirishning mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mazkur ilmiy tadqiqot ishining mavzusini belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy harbiy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar majmuasi va ularning g'oyaviy-mafkuraviy ahamiyatini tahlil qilish orqali kursantlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

globallashtirish jarayoni sharoitida yoshlar ma'naviyatini yot ta'sirlardan himoya qilishning ahamiyati va zaruratini, genezisi va rivojlanish tadrijini asoslash;

bo'lajak ofitserlarni ma'naviy-ma'rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yosh va psixologik jihatlarini aniqlashtirish;

kursantlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyillarini asoslash;

bo'lajak ofitserlarni milliy harbiy merosga sadoqat ruhida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini sifatida oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti, O'zbekiston Qurolli kuchlar akademiyasi va Harbiy aviatsiya institutining jami 342 nafar kursantlari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishning pedagogik mazmuni, didaktik imkoniyatlari, ta'limiy va tarbiyaviy shakl va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, modellashtirish, suhbat, intervyu, test, so'rovlar, ekspert baholash, ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

globallashtirish jarayoni sharoitida yoshlar ma'naviyatini yot ta'sirlardan himoya qilishning ahamiyati va zarurati, genezisi va rivojlanish tadriji geosiyosiy jarayonlarning taranglashuvi sharoitida Sharq mutafakkirlarining milliy merosini retrospektiv tahlil qilish vositasida milliy mafkura targ'iboti mexanizmlarini metodik takomillashtirish orqali didaktik jihatdan asoslangan;

bo'lajak ofitserlarni ma'naviy-ma'rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yosh va psixologik jihatlari tarbiyaning tushuntirish, ishontirish, odatlantirish, ibratnamuna kabi an'anaviy metodlarini yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimi imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga adaptiv qo'llash asosida ochib berilgan;

kursantlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyillari bo'lajak ofitserlarni ma'naviy-ma'rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasini harbiy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining kognitiv, etnoidentifikatsion, hissiy va motivatsion komponentlarini harbiy ta'limga gorizontaal va vertikal integratsiyalash orqali asoslangan;

bo'lajak ofitserlarni milliy harbiy merosga sadoqat ruhida tarbiyalash metodikasi kursantlarning yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishning amaliy mexanizmlarini darsdan tashqari tadbirlar (seminar, vebinar, davra suhbatlari) shakl va mazmuniga singdirish hamda tarbiyaviy ishlar metodikasini harbiy oliy ta'limda qo'llash texnologiyalarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

bo'lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha darsdan tashqari tabirlar majmuini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan;

“Harbiy san’at tarixi, milliy harbiy meros va O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishning interfaol usul va texnologiyalari takomillashtirilgan;

“Harbiy san’at tarixi, milliy harbiy meros va O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining ishchi-o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni o'rganishda falsafiy, metodologik, metodik, pedagogik va psixologik yondashuvlarga hamda harbiy kadrlarning kasbiy va shaxsiy sifat hamda fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan respublikamiz va chet ellik olimlarning tadqiqot ishi natijalariga asoslanganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model, texnologiya va ishlanmalar, bo'lajak ofitserlarda ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik fazilatlarini qaror toptirish tizimi va mexanizmlari takomillashtirilganligi, bu borada zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati, vatanparvarlik tuyg'usining kursantlar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli, ta'limiy va tarbiyaviy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil qilishning pedagogik omillari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning ilmiy yangiligi va xulosalari, taklif etilgan texnologiya va metodlardan harbiy oliy ta'lim muassasalari fan dasturlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklarini ishlab chiqishda, refleksiv yondashuv asosida bo'lajak ofitserlarda ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik sifatlarini qaror toptirish va rivojlantirish modeli, bo'lajak ofitserlarda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy-texnologik tizimi hamda mexanizmlaridan harbiy oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

geosiyosiy jarayonlarning taranglashuvi sharoitida Sharq mutafakkirlarining milliy merosini retrospektiv tahlil qilish, yoshlar ma'naviyatini yot ta'sirlardan himoya qilishning ahamiyati va zarurati, genezisi va rivojlanish tadriji bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Bosh shtabi boshlig'ining 235-sonli "Oliy harbiy ta'lim muassasalari birinchi bosqich kursantlarining o'quv jarayoniga moslashishi uchun o'tkaziladigan tayyorlov yig'ini Dasturini tasdiqlash va amalga kiritish to'g'risida"gi buyrug'ining Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari mavzularini shakllantirishda hamda 2024-yil 19-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish bo'yicha Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi 314-sonli buyruqning 6-ilovasi hisoblangan Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotining 2024/2025-o'quv yiliga Tematik rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 15-iyundagi 14/1844-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodikasi takomillashtirilgan;

tarbiyaning tushuntirish, ishontirish, odatlantirish, ibrat-namuna kabi an'anaviy metodlarini yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimi imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga adaptiv qo'llash asosida ochib berilgan bo'lajak ofitserlarni ma'naviy-ma'rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yosh va psixologik jihatlari bo'yicha takliflardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasi "O'zbekiston tarixi" telekanali orqali efirga uzatilgan "Tarixiy savol", "Manbalar so'zlaganda" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 6-maydagi №8512/07-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak ofitserlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha darsdan tashqari tadbirlar majmui takomillashtirilgan;

bo'lajak ofitserlarda harbiy-vatanparvarlikni nafaqat ta'lim va tarbiya orqali singdirish, balki ajdodlarimizdan bizga meros qolgan millatimizning ma'naviy va moddiy qadriyatlarini asrab avaylash, davlatimizda bunyod etilayotgan zamonaviy bino va inshootlardan faxrlanish tuyg'usini tuyish, mazkur bino va inshootlar, davlat va jamiyatimizning bir bo'lagi hamda kelajak avlod uchun bugungi milliy bunyodkorlik tafakkuri va ma'naviy ongimizdan dalolat beruvchi manbalardan biri ekanligi pedagogik jihatdan singdirilib, psixologik jihatdan motivatsion drayver sifatida e'tirof etilishi "G'alaba bog'i"da tashkil etib kelinayotgan targ'ibot aksiyalari, "uch avlod vakillari uchrashuvlari" kabi madaniy-ma'naviy tadbirlarni tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasining 2024-yil 15-maydagi 42/385-sonli dalolatnomasi). Natijada, oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida muammoning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot ishining maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining bayoni va uni amaliyotga joriy qilish natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbekistonda yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasining zarurati, genezisi va evolyutsiyasi”** deb nomlanadi va unda globallasuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini yot ta’sirlardan himoya qilishning ahamiyati va zarurati asoslangan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy, siyosiy va adabiy merosida yoshlarni ma’naviy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari tahlil qilingan va O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining evolyutsiyasi va unda vatanparvarlik targ‘iboti o‘rganilgan.

Dissertatsiyada “globallasuv” tushunchasiga dunyo olimlari tomonidan berilgan ta’riflar tahlil qilingan va ular asosida umumlashma xulosaga kelingan. Umuman, globallasuv tushunchasi va uning tavsifiga munosabat turlicha bo‘lib, bu tushuncha fanda o‘zining mukammal ta’rifini topmagan. Ta’riflar va izohlar, garchi bir-biridan farq qilsa-da, ularni birlashtirib turadigan umumiy jihatlar ham yo‘q emas. Mavjud ta’riflarda globallasuv tushunchasining quyidagi xususiyatlari aks etmagan yoki yetarli darajada o‘z ifodasini topmagan: 1) oqibatlarining ijobiy va salbiy mazmun kasb etishi; 2) global tarmoq – “jahon o‘rgimchak to‘ri” bilan bog‘liqligi; 3) umume’tirof etgan makon va zamon tushunchalarining mohiyatiga ta’siri; 4) globallasuv jamiyat taraqqiyotining tabiiy bosqichi ekanligi; 5) bir vaqtning o‘zida ham jamiyat, ham tabiat hodisalariga aloqadorligi; 6) milliy qadriyat va an’analarning integratsiyalashuvi; 7) taraqqiyot sur’atining keskin jadallashuviga ta’siri va boshqalar.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda globallasuv tushunchasiga quyidagi ta’rif berilgan: **globallasuv – taraqqiy etgan insoniyat hamjamiyatda tabiiy ravishda sodir bo‘ladigan, axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan va jamiyatdagi barcha sohalarning yaxlitlashuvi, universallasuvi va integratsiyalashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.**

Globallasuv jarayonida bizning ma’naviy hayotimizga turli yo‘llar bilan kirib kelayotgan ijobiy hodisalarni salbiysidan ajratish, farqlash masalasi o‘ta murakkab bo‘lib, buni to‘lalgicha tartibga solishning amalida imkoni yo‘q. Shunga qaramasdan, ilmiy jamoatchilik ushbu hodisalarni farqlashning umumiy jihatlarini ishlab chiqishlari bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bo‘lib turibdi. Tadqiqot natijalari va mutaxassislarining bu borada bildirgan fikrlarini umumlashtirgan holda quyida globallasuv jarayonida hayotimizga kirib kelayotgan hamda milliy mafkuramiz va ma’naviyatimizga o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan hodisalarning umumiy tavsiflari, belgilari va ularga munosabat masalasida quyidagilar taklif qilinadi:

1) hodisalarga nisbatan har doim milliy manfaatdan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘lish;

2) milliy mafkuramiz va qadriyatlarimizga mos kelmaydigan g‘oya va qarashlarni rad etish;

3) hodisalarning paydo bo'lish yoki yuzaga kelish jarayonlari, manbasi, uning mualliflari bilan qiziqish;

4) hodisalarni hech qachon ko'r-ko'rona qabul qilmaslik;

5) dunyo jamoatchiligining, xususan, soha mutaxassislarining ushbu hodisaga nisbatan munosabatlarini o'rganish;

6) jozibadorligi va maftunkorligi haddan oshiq bo'lgan hodisalarga nisbatan shubha ko'zi bilan qarash;

7) iqtisodiy jihatdan foydali, ammo ijtimoiy oqibatlari xatarli bo'lgan takliflarga rozi bo'lmaslik;

8) axborotlarni biror jarayon, voqelik haqida xabar berishdan tashqari insonlar ongi va ruhiga ta'sir etishning vositasi va siyosiy, iqtisodiy, harbiy, diniy va boshqa bir qancha qarashlarning targ'ibotchisi sifatida ham qabul qilish;

9) axborot texnologiyalari yutuqlaridan insoniyatga qarshi qaratilgan g'oyalar tarafdorlari ham unumli foydalanayotganini yodda tutish;

10) internet saytlarida joylashtirilgan ma'lumot va axborotlarning to'g'riligi, aniqligi va asoslanganligining kafolatlanmaganligini yodda tutish.

Markaziy Osiyo azaldan sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lib kelgan. Jahon ilm-fanida ilk Uyg'onish davri (IX-XII asrlar) va ikkinchi Uyg'onish davri (XIV-XV asrlar) deb e'tirof etilgan Markaziy Osiyo Renessansi dunyo ilm-fani taraqqiyotida alohida bosqich sifatida qaraladi. Ilk Uyg'onish davrida yetishib chiqqan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Qaffol ash-Shoshiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhonuddin al-Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi allomalar, so'nggi Uyg'onish davrida yashab ijod etgan Amir Temur, Bahovuddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumi, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Zahiridin Muhammad Bobur kabi buyuk tarixiy siymolar qoldirgan bebaho madaniy meroslar, ilmiy, badiiy asarlar nafaqat o'zi mansub millatning, balki butun insoniyatning ma'naviy boyligi sifatida qadrlidir.

Dissertatsiyada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy, siyosiy va adabiy merosida yoshlarni ma'naviy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi atroflicha tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida yurtimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatiga umumiy nazar tashlaganda, u quyidagi yo'nalishlarda olib borilganining guvohi bo'lamiz: ilm-fan va ta'lim sohasida; ma'naviy-ma'rifiy sohalarda; jismoniy tarbiya va sport sohasida; iqtisodiy ong sohasida; siyosiy ong sohasida; harbiy-vatanparvarlik sohasida; huquqiy va ijtimoiy himoya qilish sohalarida.

Dissertatsiyada "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning, shuningdek, ushbu sohaga oid boshqa meyoriy hujjatlarning takomillashuvi, ularga kiritilgan o'zgartirishlar asosida tadrijiy ravishda yoritib berilgan.

Dissertatsiyada Shavkat Mirziyoyevning yoshlar masalasini nafaqat yurtimizda, balki dunyo hamjamiyatida ham eng ustuvor masalalardan ekanligini

yuksak minbarlarda turib ilgari surayotgani va bunga dunyo siyosatchilarining munosabatlari tahlil qilingan. Dunyo davlatlariga yoshlar masalasiga hamjihatlik bilan e'tibor qaratish lozimligi bo'yicha murojaati Shavkat Mirziyoyevning jahon hamjamiyatida o'z pozitsiyasi va siyosiy qarashlariga ega, uzoqni ko'ra oladigan yetakchi arbob ekanligini ko'rsatdi. Dissertatsiyada bu masala faktlar asosida yoritilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo'lajak ofitserlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi”** deb nomlanadi va unda harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik va psixologik xususiyatlari yoritib berilgan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimi va tamoyillari tavsiflangan va bo'lajak ofitserlarni milliy harbiy merosga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar taqdim etilgan.

Kursantlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi harbiy ta'lim muassasasi faoliyatining muhim va ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Kursantlar shaxsida shakllantiriladigan harbiy-vatanparvarlik tuyg'usi uning barcha faoliyat turida dominant bo'lib, o'zini to'liq namoyon qilish hamda yosh askarlar va qo'l ostidagi shaxsiy tarkib uchun ideal shaxs qiyofasini gavdalantirib, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan fazilatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida singdiriladigan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi kursantlarning kelajakda shaxsiy va kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ular duch keladigan shaxsiy va kasbiy muammolarning konstruktiv yechimini topishda asos bo'ladi.

So'nggi yillarda, butun dunyoda yoshlar va ularning vatanparvarlik sifatlariga ochiqdan-ochiq tahdidlar ortib borilayotganini kuzatish mumkin. Bugungi kunda yoshlarning ongi va tafakkuriga “egalik” qilish, ularni o'z ona Vatani va xalqiga emas, balki boshqalarni manfaatiga xizmat qildirish yuzasidan bir qator xorijiy mamlakatlarning “ideolog va psixolog mutaxassisleri” tomonidan “yumshoq pedagogik yondashuv” hamda “sivilizatsiyalashgan ta'lim-tarbiya” borasidagi targ'ibot va tashviqotlari tobora faollashmoqda.

Mazkur masalada Y.A.Tyugashev ilmiy mulohazalari o'rinli bo'lib, uning nuqtai nazaricha, bugungi kunda yosh avlod ongida hayot maqsadi va mazmunini yo'qotishga, shaxsiy faoliyatdagi qiyinchiliklarning yuzaga kelishi boshqalar haqidagi g'amxo'rlik omili ekanligi, undan qutilish uchun shaxs o'zini o'ylashi kerakligi yuzasidan “miya chayish” yoki “miya oqish” operatsiyalari xorij “mutaxassis”lari tomonidan faol olib borilmoqda. Bu operatsiyaning taktik maqsadi nafaqat yoshlarga, balki bo'lajak ofitserlar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatish ustuvor masala etib belgilangan bo'lib, davlatning mudofaa qobiliyati, fuqarolarining xavfsizligi, Vatanni himoya qilish, ertangi kunga bo'lgan ishonch hissini pasaytirish hamda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini yo'qotishdir⁴.

⁴ Тюгашев Е.А. У истоков патриотического воспитания: культ предков и зарождение таможенного дела / Е.А.Тюгашев, Г.А.Выдрина // Тезисы докладов и выступлений на 3 региональной научно-практической конференции. - Новосибирск, 2002. - С. 316-320.

Kursantlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda motivlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ulardan foydalanishning psixologik jihatdan kombinatsion muvofiqligini ishlab chiqish, mexanizmlarni yaratish har bir davr uchun muhim masala bo'lib kelgan. A.N.Leontyev ta'бири bilan aytganda, kursant shaxsida shakllanadigan harbiy-vatanparvarlik negizida yuzaga keladigan harakat motivatsiyasining kasbiy faoliyatda namoyon bo'lishi axloqiy kategoriyalar bilan tavsiflanadi.⁵

Tadqiqot davomida zamonaviy harbiy ta'limda kursantlar shaxsida shakllanadigan harbiy-vatanparvarlikning motivlari aniqlashtirildi. Ular quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- Vatan va yurt himoyasi uchun harbiy operatsion va rasmiy vazifalarni bajarishda harbiy qasamyod va burchlilik mas'uliyati nuqtai nazaridan anglangan faoliyat turi sifatida yondashish;

- harbiy kasbiy faoliyat hamda shaxsiy vatanparvarlik sifatlarini yuqori darajada o'z shaxsida qaror toptirish asosida topshirilgan taktik va strategik harbiy topshiriqlarni fidokorona amalga oshirish;

- Vatan xavfsizligi va chegaralar daxlsizligini ta'minlash hamda suverenitetini saqlashda shaxsiy javobgarlik va burchlilikni anglash, doimiy shaylikning yuqori darajadagi tayyorgarlik holati;

- Vatanga muhabbat va sadoqat, qo'l ostidagi askar va serjantlarga kasbiy va shaxsiy ibrat namunasi bo'lish hamda sharaflil burchni ado etishda mardlik va jasorat ko'rsatish.

Mazkur motivlar kursantning shaxsiy va kasbiy faoliyat jarayonida bir-biri bilan bog'liq bo'lib, xulq-atvorning ichki mexanizmlarini o'zida aks ettiradi. Harbiy ta'limda kursantlar shaxsida shakllanadigan harbiy-vatanparvarlikning motivlarini pedagogik usul va texnologiyalar asosida tizimli amalga oshirish hamda ichki muvofiqlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy oliy ta'lim muassasalarida bilim olish va o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat sog'lom munosabatlar hamda imkoniyatga ega bo'lish bilan bog'liq modellashtirish omillariga muvofiqlashib, anglangan faoliyatni mazmuniga aylanadi hamda kursantlar va ofitserlar munosabatining mohiyatini belgilaydi. Muayyan faoliyat informatsion va emotsional funksiyalarni bajarib, kommunikativ munosabatlarni tartibga soluvchi faollikning motivatsion idealini boyitadi. Faollikda motivatsion idealning barqarorlashuvi munosabatlar muvofiqligini yuqori cho'qqiga olib chiqqan holda kursantlarda ijtimoiy tuyg'ularni shakllantiradi hamda bilim olish, o'qib o'zlashtirish bilan bog'liq emotsional qobiliyatni ratsional qobiliyatga o'tishini ta'minlaydi. Emotsional qobiliyatni ratsional qobiliyatga o'tish jarayoni kognitiv faoliyat turini namoyon etish jarayonining yuzaga chiqishiga xizmat qilib, o'qib o'rganish bilan bog'liq xatti-harakatlarning funktsionalligini ta'minlaydi va sifat bosqichga olib o'tadi. Mazkur

⁵ Евдокимова Ю.Н. Система военно-патриотического воспитания как условие становления личности курсантов военных образовательных учреждений высшего профессионального образования (ВОУ ВПО) ВВ МВД РФ: автореф. дис... канд. пед. наук / Ю.Н. Евдокимова. Саратов: Саратовский государственный университет им. Н.Г. Чернышевского, 2001.-С.-13.

jarayonda vatanparvarlikning shakllanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-axloqiy tarbiya mexanizmi paydo bo'ladi. Ushbu mexanizm quyidagi formulaga muvofiq amalga oshiriladi:

**PEDAGOGIK TARBIYA VA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK + BILIM VA
G'OYALAR + MOTIVLAR + HIS-TUYG'U VA MUNOSABATLAR + KO'NIKMA
VA MALAKALAR + FAOLIYAT VA XATTI-HARAKATLAR + IJTIMOYIY-
AXLOQIY FAZILATLAR = VATANPARVARLIK SIFATLARI**

Tadqiqotda mazkur mexanizm oliy harbiy ta'lim muassasalari ta'lim va tarbiya jarayonida vatanparvar shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi: unda tavsiya etilayotgan har bir komponent muhim bo'lib, ulardan hech bo'lmaganda bittasini chiqarib tashlash yoki boshqasi bilan almashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Aksincha, uni to'ldirish va mukammallashtirish uchun maqsad va vazifadan kelib chiqqan holda ijtimoiy-psixologik omillarga muvofiqlashgan komponentlarni zamon nuqtai nazaridan qo'shish lozim.


Tadqiqotda kursantlar shaxsida shakllantiriladigan harbiy vatanparvarlikning milliy mentalitet omillariga muvofiqlashuvi nuqtai nazaridan uning tuzilishi tavsiflangan.

Bo'lajak ofitserlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda kognitiv, etnoidentifikatsion hamda hissiy va motivatsion komponentlar muhim ahamiyat kasb etib, ularni pedagogik-psixologik jihatdan ta'lim mazmuniga singdirish maqsadga muvofiq. Tadqiqot ishi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimini ishlab chiqish va uning tamoyillarini belgilashni taqozo qiladi. Mazkur vertikal tizim orqali yoshlarni davlat va jamiyatga fidokorona xizmat qilish, Vatanga o'z sadoqatini tanlagan harbiy kasbi orqali namoyon etish hamda vatanparvar harbiy kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy sohalararo muvofiqlashuvini o'zida aks ettirgan pedagogik yondashuv ilmiy jihatdan asoslanib, amaliy natijalari va samaradorligi tahlil etilgan (1-rasm).

Tadqiqotda ishlab chiqilgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yilning 29-iyundagi 267-son qarori bilan tasdiqlangan "2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi" asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'zaro muvofiqlashuv va izchilikni o'zida aks ettirgan bir nechta komponentlarni o'z ichiga oladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimiga ko'ra oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va oliy ta'lim muassasalari yoshlarda o'z-o'zini anglash, dunyoqarashini o'stirish, kamolot sari yo'naltirish kabi shaxsiy sifatlarni, o'z "men"ini jamoatchilik manfaatlaridan ustun qo'ymaslik tushunchalarini shakllantirishi jarayonida ularda davlat va jamiyatga xizmat qiladigan vatanparvarlik fazilatlarini qaror toptirib boriladi.

Dissertatsiyada ushbu vertikal tizimning barcha komponentlari batafsil tavsiflangan.



1-rasm. Bo'ljak ofitserlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimi

Vertikal pedagogik-psixologik tizim yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim asos bo'lib xizmat qilsa, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyillari esa bevosita bo'lajak ofitserlarni harbiy oliy o'quv yurtida amalga oshiradigan ta'lim va tarbiya mazmunida o'z aksini topadi. Tadqiqotda kursantlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyillari ishlab chiqilgan.

Ilmiy obyektivlik tamoyili harbiy bilim yurtida tahsil olayotgan kursantlarni o'qishning har bir bosqichida harbiy-vatanparvarlik va professional harbiy bilim va tushunchalarni assimilyatsiya qilish imkoniyatini yanada oshiradi.

Ongli faoliyat tamoyili kursantlarda kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan nizom va qonunlarga to'liq rioya etish, ularni obyektiv qabul qilish, harbiy-vatanparvarlikning mohiyatini to'liq anglash va o'z faoliyatini shunga muvofiq amalga oshirish qobiliyatini aks ettiruvchi kategoriyalarni o'z ichiga oladi.

Shaxsni hurmat qilish tamoyili kursant shaxsida harbiy-vatanparvarlikning muhim elementi bo'lgan sifatlardan, ya'ni har bir insonni sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hissini shakllantiradi.

Jamoada va jamoa orqali ta'lim olish tamoyili kursantlarda harbiy jamoa bilan o'quv va jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida birgalikda harakat qilish ko'nikmasini shakllantirib, muammoli vaziyatlarda harbiy safdoshiga amaliy va psixologik yordam ko'rsatish malakasini qaror toptirib, harbiy jamoani boshqarish sifat va fazilatlarini rivojlantiradi.

Insonda ijobiy narsalarga tayanish tamoyili shaxsga xos bo'lgan uchta komponent ya'ni ijobiy dunyoqarash, xayrixohlik va farovon turmush-tarzini o'z ichiga oladi.

Amaliy faoliyatga jalb qilishda tizimlilik va izchillik tamoyili kursantlarda ta'lim va tarbiya jarayonida singdiriladigan harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini omilkorlik bilan amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aniqlik, tezkorlik va muntazamlilik tamoyillari bo'lajak ofitserlar faoliyatida asosiy masala bo'lib, jangovar topshiriq va vazifalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan harbiy taktik va strategik rejada aks etishi zarur.

Dissertatsiyada mazkur tamoyillarning mazmuni ochib berilgan.

Tarixiy milliy harbiy merosga sadoqat va ajdodlarga munosib voris bo'lish sifatlarini bo'lajak ofitserlar ongida dasturlash, uning o'z faoliyatida namoyon bo'lishi pedagogik tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan metodikalarni to'g'ri tanlanishining samarasi bo'lib, ular ongida singish hamda vatanparvarlik sifatlarini barqaror shakllanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi⁶. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak ofitserlarni milliy harbiy merosga sadoqat ruhida tarbiyalash, o'qitiladigan fanlar va tarbiyaviy ishlarning shakli va usullarini to'g'ri tanlash, ulardan samarali va maqsadli foydalanish, mazmun-mohiyatini ochib berishda pedagogik izchillikni o'zida mujassamalashtirgan innovatsion metodikalardan foydalanishga ustuvorlik berish taqozo etiladi.

⁶ Пищик О. Г. Военно-идеологическое направление военнопатриотического воспитания в учреждении общего среднего образования / О.Г.Пищик, Е.В.Онуфрович // Веснік адукацыі. - 2022. - № 10. - С. 56-62.

Harbiy oliy ta'lim muassasalarida bu borada "Harbiy san'at tarixi, milliy harbiy meros va O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining ahamiyati katta. Mazkur fan darsligi ikkita, ya'ni "Harbiy san'at tarixi va milliy harbiy meros" va "O'zbekistonning eng yangi tarixi" bo'limlaridan iborat bo'lib, 20 ta mavzuni o'z ichiga oladi.

"Harbiy san'at tarixi, milliy harbiy meros va O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani darsligining "Harbiy san'at tarixi va milliy harbiy meros" deb nomlangan va 13 ta mavzuni o'z ichiga olgan birinchi bo'limini "Assesment", "Skarabey", "Rezyume" kabi metodlari orqali o'qitish yuqori samaradorlikni berishi pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida isbotlandi.

"Assesment" metodining tavsifi quyidagilarni o'z ichiga oladi: mazkur metod o'tilgan ma'ruzani seminar va amaliy mashg'ulot jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan mukammal holda to'rt bosqichli (test, simptom-ilmiy gipoteza, muammoli vaziyat va amaliy ko'nikma) jarayonda o'rganiladi. Shuningdek, mavzu yoki bo'lim bo'yicha barcha mavzularni tinglovchilar tomonidan yodga olish, yoki biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq, vazifalarga mustaqil ravishda o'z munosabatlarini bildirish orqali bilim, ko'nikma, malakalarini egallaydi hamda o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha tinglovchilarni ilmiy-nazariy, tahliliy hamda amaliy jihatdan bilimlari, ko'nikmalarini baholay olish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

"Assesment" metodidan "O'zbekistonning eng yangi tarixi"ga oid bo'limdagi mavzularni yoritishda foydalanishdan maqsad quyidagilar bilan tavsiflanadi: bo'lajak ofitserlarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganligi va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, mustaqil ravishda o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga solish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, kursant to'rt bosqichli jarayonni amalga oshirishda ya'ni test topshiriqlarni bajarish orqali tezkor savolga aniq va to'g'ri javob berish, simptom-ilmiy gipoteza topshiriqni bajarishda muammo va mavzuga doir xususiy belgilarni aniqlash, ajratish, o'ziga xosligini tahlil etish hamda ilmiy yondashuvni amalga oshirish, muammoli vaziyat topshirig'iga javob berish jarayonida aniqlilik, mantiqiylik, kreativlik hamda nostandart yondashish hamda amaliy ko'nikmaga doir topshiriqlarni bajarishda o'z sohasiga doir favqulodda vaziyatlarda unga ishonib topshirilgan harbiy topshiriq va vazifalarni real voqiyelik nuqtai nazaridan amalga oshirish kompetentligini o'z shaxsida shakllantiradi.

Metodning qo'llanilishi: mazkur metodika "O'zbekistonning eng yangi tarixi"ga oid bo'limdagi o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshida, dars oxirida yoki o'quv predmetining biron-bir bo'limi tugallanganida) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin kursantlarning bilimlari tekshirib olish, ko'nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo'ljallangan. Ushbu usulni ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida yakka tartibda va kichik guruhlarda keng qo'llash mumkin.

"Skarabey" metodining tavsifi quyidagilarni o'z ichiga oladi: mazkur metod interfaol metodika bo'lib, kursant va shaxsiy tarkibda fikri bog'liqlik, mantiqiy

fikrlash, xotiralarining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur metod kursantlarga mustaqil ravishda o'z bilim va saviyasini oshirishga, o'zini o'zi baholashga, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bir paytda turli nazariya va g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga xizmat qiladi.

